

OMMAVIY OFERTA

bo'lib to'lash bilan to'lovlarni qabul qilishni tashkil etish to'g'risidagi shartnomani tuzish haqida (Merchant uchun)

Toshkent shahri

2026-yil «31» iyuldan amal qiladi

Ushbu hujjat «NAVO BNPL» mas'uliyati cheklangan jamiyatining (keyingi o'rinda — «Servis») tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga (keyingi o'rinda — «Sotuvchi», Merchant) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq, quyida bayon etilgan shartlarda bo'lib to'lash bilan to'lovlarni qabul qilishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasini tuzish to'g'risidagi rasmiy taklifi (ommaviy ofertasi) hisoblanadi.

Ushbu Ofertani aksept qilish 2-bo'limda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi va Sotuvchining uning shartlari bilan to'liq va so'zsiz roziligini anglatadi. Ushbu Ofertada bevosita tartibga solinmagan barcha masalalarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

1. Atamalar va ta'riflar

1.1. «Servis» — jismoniy shaxslarga topshiriq shartnomasini tuzish to'g'risidagi ommaviy oferta (keyingi o'rinda — «Mijoz ofertasi») asosida «bo'lib to'lash bilan xarid qilish» xizmatini taqdim etuvchi «NAVO BNPL» MChJ.

1.2. «Platforma» — Rahmat mobil ilovasi hamda «MULTICARD PAYMENT» AJ (Platforma operatori)ning boshqa dasturiy-apparat yechimlari bo'lib, ular orqali Xaridorlarga bo'lib to'lash xizmatidan foydalanish, Sotuvchiga esa QR-kod orqali to'lovlarni qabul qilish imkoniyati taqdim etiladi. Servis xizmat ko'rsatishning boshqa kanallaridan foydalanishga haqli; kanalning o'zgarishi ushbu Ofertaga o'zgartirish kiritishni talab qilmaydi.

1.3. «Xaridor» — Mijoz ofertasini aksept qilgan va Servisga Sotuvchidan Tovar/Xizmatni Xaridor nomidan va uning hisobidan sotib olishni topshirgan jismoniy shaxs.

1.4. «Tovar/Xizmat» — Sotuvchi tomonidan sotiladigan tovarlar, ishlar yoki xizmatlar.

1.5. «Operatsiya» — Xaridor tomonidan bo'lib to'lash xizmatidan foydalangan holda Tovar/Xizmatni har bir alohida xarid qilish bo'lib, uning doirasida Servis Xaridor nomidan va uning hisobidan Sotuvchiga to'lovni amalga oshiradi.

1.6. «Operatsiya qiymati» — Operatsiya amalga oshirilgan paytda Sotuvchi tomonidan belgilangan va Sotuvchining kassa cheki (hisobi, invoysi) bilan tasdiqlangan Tovar/Xizmat narxi.

1.7. «Komissiya» — ushbu Ofertaning 3-bo'limida ko'rsatilgan xizmatlar uchun Sotuvchi tomonidan to'lanadigan Servisning haqi. Komissiya miqdori Qo'shilish to'g'risidagi arizada individual tarzda belgilanadi.

1.8. «Qo'shilish to'g'risidagi ariza» (keyingi o'rinda — «Ariza») — Servis shakli bo'yicha Sotuvchi tomonidan imzolanadigan, Sotuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni, uning bank rekvizitlarini va hamkorlikning individual shartlarini, shu jumladan Komissiya miqdorini o'z ichiga olgan hujjat. Ariza ushbu Ofertani aksept qilish yo'li bilan tuziladigan shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.9. «Operatsiyalar reyestri» — Servis tomonidan hisobot davri uchun shakllantiriladigan hamda Operatsiyalar ro'yxatini, ularning summalarini, Komissiya summalarini va Sotuvchiga to'lanadigan summalarni o'z ichiga olgan elektron hisobot.

1.10. «Hisobot davri» — Arizada boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, bir kalendar oy.

2. Ofertani aksept qilish va ulanish tartibi

2.1. Sotuvchi tomonidan Servisga Qo'shilish to'g'risidagi arizaning Sotuvchining elektron raqamli imzosi (ERI) bilan imzolangan elektron hujjat ko'rinishida Didox elektron hujjat aylanish tizimi (yoki Servis ko'rsatgan boshqa EHA tizimi) orqali yuborilishi, Arizaning keyinchalik Servis tomonidan 2.3-band tartibida qabul qilinishi sharti bilan, ushbu Ofertaning aksepti deb tan olinadi.

2.2. Sotuvchini ulashning majburiy shartlari quyidagilardan iborat: Sotuvchining «MULTICARD PAYMENT» AJ bilan amaldagi shartnomasi mavjudligi; Platforma operatori tomonidan Sotuvchiga ochildan, bo'lib to'lash xizmati orqali to'lov qabul qilish mumkin bo'lgan faol QR-kod (statik yoki dinamik) mavjudligi.

2.3. Shartnoma Servis tomonidan Arizaning elektron hujjat aylanish tizimida qabul qilingan (ERI bilan imzolangan) paytidan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Qabul qilish sanasi va vaqti EHA tizimi tomonidan qayd etiladi hamda Tomonlar tomonidan shartnoma tuzilgan sana deb tan olinadi. Arizaning Servis tomonidan EHA tizimida rad etilishi uni qabul qilishdan bosh tortishni anglatadi.

2.3.1. Tomonlar EHA tizimida Tomonlarning ERI bilan imzolangan Ariza O'zbekiston Respublikasining elektron hujjat aylanishi va elektron raqamli imzo to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq o'z qo'li bilan imzolangan va Tomonlarning muhrlari bilan tasdiqlangan qog'oz hujjatga teng kuchga ega ekanini tan oladilar.

2.4. Servis sababini tushuntirmasdan Arizani qabul qilishdan bosh tortishga, shuningdek Sotuvchidan ulanish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha hujjat va ma'lumotlarni so'rashga haqli.

2.5. Ushbu Oferta shartlari bilan Ariza shartlari o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda Ariza shartlari ustuvor hisoblanadi.

3. Shartnoma predmeti

3.1. Servis Sotuvchiga quyidagi xizmatlarni ko'rsatish majburiyatini oladi: Xaridorlarni jalb qilish hamda Sotuvchining Tovar/Xizmatlarini bo'lib to'lash bilan xarid qilish imkoniyatini xizmat foydalanuvchilari orasida ilgari surish; Tovar/Xizmatlar uchun to'lovlarni bo'lib to'lash xizmati orqali qabul qilishni tashkil etish; Operatsiyalarni axborot-texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, shu jumladan Operatsiyalar reyestrlarini shakllantirish.

3.2. Sotuvchi Servis xizmatlari uchun Arizada ko'rsatilgan miqdorda va ushbu Ofertaning 5-bo'limida belgilangan tartibda Komissiya to'lash majburiyatini oladi.

3.3. Operatsiyalarni amalga oshirishda Servis Mijoz ofertasi asosida Xaridor nomidan va uning hisobidan harakat qiladi hamda Xaridor bilan Sotuvchi o'rtasidagi bitim bo'yicha sotuvchi, yetkazib beruvchi yoki ijrochi hisoblanmaydi. Oldi-sotdi (xizmat ko'rsatish) shartnomasi bevosita Sotuvchi bilan Xaridor o'rtasida tuziladi.

3.4. Ushbu Oferta komissiya shartnomasi, Sotuvchi manfaatlarini ko'zlovchi agentlik shartnomasi, qarz shartnomasi yoki Sotuvchini moliyalashtirish shartnomasi hisoblanmaydi.

3.5. Platforma operatori — «MULTICARD PAYMENT» AJ ushbu Ofertani aksept qilish yo'li bilan tuziladigan shartnomaning tomoni emas hamda Servisning Sotuvchi oldidagi yoki Sotuvchining Servis oldidagi majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

4. Operatsiyalarni amalga oshirish tartibi

4.1. Xaridor Sotuvchidan Tovar/Xizmatni mustaqil ravishda tanlaydi va Operatsiyani Platforma orqali, shu jumladan Sotuvchining QR-kodini skanerlash yo'li bilan boshlaydi.

4.2. Operatsiya tasdiqlangandan so'ng Servis Operatsiya qiymatini ushbu Ofertaning 5-bo'limida nazarda tutilgan tartibda Sotuvchi foydasiga to'laydi.

4.3. Sotuvchi Xaridorga lozim darajadagi sifatli, to'liq komplektidagi Tovarni topshirish (Xizmatni ko'rsatish) hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kassa cheki va boshqa hujjatlarni Operatsiyaning to'liq qiymatiga rasmiylashtirish majburiyatini oladi.

4.4. Tovarga bo'lgan mulk huquqi Sotuvchining shartlari va qonunchilik bilan belgilangan paytda Xaridorga o'tadi. Servis Tovarga nisbatan huquqlarga ega bo'lmaydi.

4.5. Sotuvchi bo'lib to'lash xizmatidan foydalanuvchi Xaridorlarga Tovar/Xizmatlarni umumiy asoslarda sotishdan bosh tortmaslik majburiyatini oladi.

4.6. Har bir Operatsiya bo'yicha, shu jumladan statik QR-kod orqali amalga oshirilgan Operatsiyalar bo'yicha, Sotuvchi O'zbekiston Respublikasining nazorat-kassa texnikasini qo'llash to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq Operatsiyaning to'liq qiymatiga fiskal chek rasmiylashtirilishini, shuningdek fiskal

chek ma'lumotlarini tegishli Operatsiyaga bog'lash imkoniyatini (shu jumladan Platforma operatori infratuzilmasi orqali) ta'minlash majburiyatini oladi. Operatsiya bo'yicha fiskal chekning mavjud emasligi shartnomaning jiddiy buzilishi hisoblanadi va Servisga buzilish bartaraf etilgunga qadar Sotuvchining QR-kodi bo'yicha bo'lib to'lash bilan to'lov qabul qilishni to'xtatib turish huquqini beradi.

5. Komissiya va hisob-kitob tartibi

5.1. Komissiya miqdori Qo'shilish to'g'risidagi arizada Operatsiya qiymatidan foiz ko'rinishida belgilanadi. Tomonlar Arizada Tovar/Xizmat kategoriyalari va/yoki Sotuvchining savdo nuqtalari bo'yicha tabaqalashtirilgan stavkalarni belgilashga haqli.

5.2. Hisob-kitoblar ushlab qolish (hisobga o'tkazish) yo'li bilan amalga oshiriladi: Sotuvchiga Operatsiya qiymatidan Komissiya chegirib tashlangan summa o'tkaziladi. Servisning Operatsiya qiymatini to'lash majburiyati va Sotuvchining Komissiya to'lash majburiyati to'lov amalga oshirilgan paytda o'zaro bir turdagi talablarni hisobga o'tkazish yo'li bilan bekor bo'ladi, bunga Tomonlar so'zsiz rozi bo'ladilar.

5.3. Sotuvchi o'zi bilan «MULTICARD PAYMENT» AJ o'rtasida tuzilgan to'lov xizmatlarini ko'rsatish shartnomasiga muvofiq «MULTICARD PAYMENT» AJ (Platforma operatori)ga har bir Operatsiya bo'yicha quyidagilarni so'zsiz topshiradi: Servisdan Operatsiyaning to'liq qiymatini qabul qilish, undan Arizada belgilangan miqdordagi Komissiyani ushlab qolish (hisobga olish), Sotuvchiga Komissiya chegirib tashlangan summani o'tkazish, Komissiya summasini esa Servis ixtiyorida qoldirish yoki Servisga o'tkazish. Sotuvchiga Komissiya chegirib tashlangan summaning o'tkazilishi Komissiyaning ushlab qolinishi (hisobga olinishi) bilan birgalikda Servisning Operatsiyaning to'liq qiymatini to'lash bo'yicha hamda «MULTICARD PAYMENT» AJning tegishli to'lov bo'yicha Sotuvchiga pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha majburiyatlarining lozim darajada va to'liq bajarilishi deb tan olinadi. To'lov majburiyati Komissiya chegirib tashlangan summa Arizada ko'rsatilgan Sotuvchining hisob raqamiga kirim qilingan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

5.4. Har bir Operatsiya bo'yicha to'lov, Arizada boshqa muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, Operatsiya tasdiqlangan paytdan boshlab 3 (uch) bank kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

5.5. Komissiyaning ushlab qolinishi Xaridor uchun Operatsiya qiymatini kamaytirmaydi: Xaridorning majburiyatlari Sotuvchi tomonidan belgilangan va kassa chekida ko'rsatilgan Tovar/Xizmatning to'liq narxidan kelib chiqib aniqlanadi.

5.6. Hisobot davri tugaganidan keyin 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay Servis Sotuvchiga Operatsiyalar reyestrini hamda Hisobot davri uchun Komissiya summasiga ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasini elektron hujjat aylanish tizimi orqali yoki Arizada ko'rsatilgan elektron pochta orqali yuboradi. Sotuvchi Dalolatnomani olgan paytdan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida uni imzolashi yoki asoslantirilgan e'tirozlarini yuborishi shart. Ko'rsatilgan muddatda e'tirozlar bo'lmasa, Dalolatnoma qabul qilingan, xizmatlar esa lozim darajada ko'rsatilgan hisoblanadi.

5.7. Komissiyani soliqqa tortish (QQS qo'llaniladigan bo'lsa, uni ham qo'shgan holda) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Tomonlarning soliq rejimlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.8. Komissiya miqdorining o'zgartirilishi Sotuvchi va Servis tomonidan imzolangan yangi Ariza yoki Arizaga qo'shimcha bilan rasmiylashtiriladi. Komissiyaning yangi miqdori faqat imzolangan hujjat kuchga kirganidan keyin amalga oshirilgan Operatsiyalarga qo'llaniladi. Komissiya miqdorini kamaytirish qo'shimcha hujjat imzolanmasdan, Servisning Sotuvchiga yuborilgan bildirishnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

5.9. Tomonlar istalgan Tomonning so'rovi bo'yicha, lekin kamida chorakda bir marta o'zaro hisob-kitoblar solishtirmasini o'tkazadilar.

6. Narx siyosati

6.1. Sotuvchi bo'lib to'lash xizmatidan foydalanuvchi Xaridorlar uchun Tovar/Xizmat narxi Operatsiya amalga oshirilgan paytda xuddi shu Tovar/Xizmatning oddiy chakana savdodagi narxidan (naqd pul yoki bank kartasi bilan to'lashni ham qo'shgan holda) oshmasligini kafolatlaydi.

6.2. Sotuvchi bo'lib to'lash xizmatidan foydalanish munosabati bilan Xaridorlardan har qanday qo'shimcha to'lovlar, yig'imlar yoki ustamalar undirishga haqli emas.

6.3. Ushbu bo'lim qoidalarining buzilishi shartnomaning jiddiy buzilishi hisoblanadi va Servisga Sotuvchining QR-kodi bo'yicha bo'lib to'lash bilan to'lov qabul qilishni to'xtatib turish va/yoki shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqini beradi.

7. Tovar/Xizmatlar sifati, kafolatlar va da'volar

7.1. Sotuvchi Xaridor oldida Tovar/Xizmatning sifati, to'liq komplektligi, xavfsizligi, topshirish (ko'rsatish) muddatlari, kafolat xizmati, shuningdek iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi uchun to'liq javobgar bo'ladi.

7.2. Xaridorlarning Tovar/Xizmat sifati, uni qaytarish, almashtirish va kafolat xizmati bilan bog'liq barcha da'volari Xaridor tomonidan bevosita Sotuvchiga taqdim etiladi va Servis ishtirokisiz Sotuvchi tomonidan ko'rib chiqiladi.

7.3. Sotuvchi Xaridorlarning da'volarini o'z kuchi va o'z hisobidan hal qilish hamda Sotuvchining Xaridorlar oldidagi majburiyatlarini buzishi natijasida Servisda yuzaga kelgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan har qanday zararlarni Servisga qoplash majburiyatini oladi.

7.4. Sotuvchi Operatsiyaning amalga oshirilishini hamda Tovarining Xaridorga topshirilishini (Xizmat ko'rsatilishini) tasdiqlovchi hujjatlarni — kassa (fiskal) cheklarini, yuk xatlarini, dalolatnomalarni, mavjud bo'lsa kamera yozuvlarini — Operatsiya sanasidan boshlab kamida 3 (uch) yil saqlash hamda ularni Servisning so'rovi bo'yicha 5 (besh) ish kuni ichida, shu jumladan Xaridorlar qarzini suddan oldingi va sud tartibida undirish maqsadlari uchun taqdim etish majburiyatini oladi.

8. Tovarni qaytarish va Xizmatdan voz kechish

8.1. Tovarni qaytarish (Xizmatdan voz kechish) Xaridor tomonidan Sotuvchining shartlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bevosita Sotuvchiga amalga oshiriladi. Sotuvchi Operatsiya bo'yicha rasmiylashtirilgan har bir qaytarish haqida Servisni zudlik bilan xabardor qilishi shart.

8.2. Sotuvchi Mijoz ofertasiga muvofiq Xaridor tegishli Operatsiya bo'yicha Xaridorning Servis oldidagi to'lanmagan qarzi miqdorida Sotuvchiga nisbatan pul mablag'larini qaytarish bo'yicha talab huquqini Servisga berishi (o'tkazishi) haqida xabardor va buni tan oladi.

8.3. Tovar qaytarilganda (Xizmatdan voz kechilganda) Sotuvchi qaytarilishi lozim bo'lgan pul mablag'larini — Sotuvchining so'rovi bo'yicha Servis tomonidan ma'lum qilinadigan, Xaridorning tegishli Operatsiya bo'yicha Servis oldidagi to'lanmagan qarzi miqdorida — qaytarish rasmiylashtirilgan paytdan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida Servisning hisob raqamiga (Xaridorga emas) o'tkazish majburiyatini oladi. Ko'rsatilgan qarzdan ortiq summa (mavjud bo'lsa) Sotuvchi tomonidan bevosita Xaridorga qaytariladi.

8.4. Tovar to'liq qaytarilgan (Xizmatdan to'liq voz kechilgan) taqdirda, agar qaytarish Operatsiya sanasidan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida rasmiylashtirilgan bo'lsa va Arizada boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, tegishli Operatsiya bo'yicha Komissiya Sotuvchiga qaytarilishi lozim (yoki ushlab qolinmaydi).

8.5. Xaridorning Servis oldida to'lanmagan qarzi mavjud bo'lganida pul mablag'larining Sotuvchi tomonidan bevosita Xaridorga qaytarilishi, agar Sotuvchi qaytarishni amalga oshirishdan oldin qarz miqdori haqida xabardor qilingan bo'lsa, Sotuvchining 8.3-bandda nazarda tutilgan Servis oldidagi majburiyatini bekor qilmaydi.

9. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

9.1. Servis quyidagi majburiyatlarni oladi: 5-bo'limga muvofiq Sotuvchiga to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish; Operatsiyalar reyestrlari va Dalolatnomalarni taqdim etish; xizmatning ishlashi masalalari bo'yicha Sotuvchiga maslahat berish.

9.2. Servis quyidagilarga haqli: Xaridorlarga bo'lib to'lashni taqdim etish shartlarini, shu jumladan Xaridorlardan undiriladigan Servis haqi miqdorini, limitlarni va skoring natijalarini mustaqil belgilash; alohida Operatsiyalarni sababini tushuntirmasdan rad etish; firibgarlik xatarlari yoki Sotuvchi tomonidan buzilishlar aniqlanganda Operatsiyalarni amalga oshirishni to'xtatib turish.

9.3. Sotuvchi quyidagi majburiyatlarni oladi: Xaridorlar oldidagi majburiyatlarni lozim darajada bajarish; narx siyosatiga (6-bo'lim) rioya qilish; Servisga Tovar/Xizmatlar va narxlar haqida ishonchli ma'lumot taqdim etish; rasmiylashtirilgan qaytarishlar haqida Servisni zudlik bilan xabardor qilish; Operatsiyalar

bo'yicha birlamchi hujjatlarni qonunchilikka muvofiq rasmiylashtirish; Platforma operatori bilan shartnomani va faol QR-kodni amalda saqlab turish.

9.4. Sotuvchi quyidagilarga haqli: ushbu Oferta va Arizada belgilangan tartib va muddatlarda to'lovlarni olish; Operatsiyalar reyestrlarini olish; Dalolatnomalar va Reyestrlar bo'yicha asoslantirilgan e'tirozlar yuborish.

10. Tomonlarning javobgarligi

10.1. Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar ushbu Oferta va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

10.2. 5.4 va 8.3-bandlarda nazarda tutilgan pul mablag'larini o'tkazish muddatlarini buzganlik uchun aybdor Tomon boshqa Tomonning talabi bo'yicha o'z vaqtida o'tkazilmagan summaning 0,1% miqdorida har bir kechiktirilgan kun uchun, lekin qarz summasining 10% idan oshmagan holda penya to'laydi.

10.3. Servis Xaridorlarning Sotuvchi oldidagi Operatsiyalardan tashqarida vujudga kelgan majburiyatlari, banklar, to'lov tizimlari va Platforma operatorining harakatlari, shuningdek Servis nazoratidan tashqaridagi texnik nosozliklar uchun javobgar emas.

10.4. Belgilangan tartibda tasdiqlangan yengib bo'lmas kuch holatlari yuzaga kelganda Tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar. Bunday holatlar yuzaga kelgan Tomon boshqa Tomonni 10 (o'n) kalendar kun ichida xabardor qilishi shart.

11. Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlar

11.1. Tomonlar shartnomani bajarish doirasida olingan maxfiy ma'lumotlarni, shu jumladan Arizaning individual shartlarini, Operatsiyalar, tariflar va Xaridorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar; qonunchilikda nazarda tutilgan hollar hamda hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur hajmda Platforma operatoriga ma'lumot taqdim etish bundan mustasno.

11.2. Xaridorlarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash har bir Tomon tomonidan O'zbekiston Respublikasining shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq hamda faqat shartnomani va Xaridorlar oldidagi majburiyatlarni bajarish maqsadida amalga oshiriladi.

12. Oferta shartlarini o'zgartirish

12.1. Servis ushbu Ofertani bir tomonlama o'zgartirishga haqli. O'zgartirilgan tahrir Servisning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi va e'lon qilingan paytdan boshlab Sotuvchiga yetkazilgan hisoblanadi. Servis o'zgarishlar kuchga kirishidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin Arizada ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlari bo'yicha Sotuvchini o'zgarishlar haqida qo'shimcha ravishda xabardor qiladi.

12.2. Ofertaning yangi tahriri kuchga kirganidan keyin Sotuvchi tomonidan bo'lib to'lash xizmati orqali to'lov qabul qilishning davom ettirilishi uning shartlariga rozilik deb tan olinadi. Rozi bo'lmagan taqdirda Sotuvchi 13-bo'limda nazarda tutilgan tartibda shartnomani bekor qilishga haqli.

12.3. O'zgarishlar ular kuchga kirgunga qadar amalga oshirilgan Operatsiyalarga tatbiq etilmaydi. Ariza bilan belgilangan individual shartlar (shu jumladan Komissiya miqdori) faqat ushbu Ofertaning 5.8-bandida nazarda tutilgan tartibda o'zgartiriladi.

13. Shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish

13.1. Ushbu Ofertani aksept qilish yo'li bilan tuzilgan shartnoma muddatsiz amal qiladi.

13.2. Har bir Tomon boshqa Tomonni kamida 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin xabardor qilib, shartnomani bir tomonlama suddan tashqari tartibda bekor qilishga haqli.

13.3. Sotuvchining Platforma operatori bilan shartnomasi bekor bo'lganda yoki Sotuvchining QR-kodi bekor qilinganda, agar Tomonlar to'lov qabul qilishning boshqa kanalini kelishib olmasalar, shartnoma avtomatik ravishda bekor bo'ladi.

13.4. Shartnomaning bekor bo'lishi Tomonlarni bekor qilish sanasigacha amalga oshirilgan Operatsiyalar bo'yicha majburiyatlarni, shu jumladan to'lovlar, qaytarishlar va Xaridorlar da'volarini hal qilish bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

14. Nizolarni hal qilish tartibi

14.1. Barcha nizo va kelishmovchiliklarni Tomonlar muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar. Da'vo (pretenziya) tartibi majburiy; da'voni ko'rib chiqish muddati — olingan paytdan boshlab 10 (o'n) kalendar kun.

14.2. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Servis joylashgan yerdagi sudga ko'rib chiqish uchun beriladi.

14.3. Tomonlarning munosabatlariga O'zbekiston Respublikasi huquqi qo'llaniladi.

15. Boshqa shartlar

15.1. Tomonlar o'rtasidagi hujjat aylanishi (Arizalar, Dalolatnomalar, Arizalarga qo'shimchalar) Didox elektron hujjat aylanish tizimi orqali ERI bilan imzolangan holda amalga oshiriladi. Operatsiyalar reyestrlari va bildirishnomalar, shuningdek, Arizada va ushbu Ofertaning 16-bo'limida ko'rsatilgan elektron pochta manzillari orqali yuborilishi mumkin hamda Tomonlar tomonidan yuridik ahamiyatga ega deb tan olinadi.

15.2. Sotuvchi Servisning yozma rozilgisiz shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli emas.

15.3. Qo'shilish to'g'risidagi ariza shakli (ushbu Ofertaga 1-ilova) ushbu Ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

16. Servis rekvizitlari

«NAVO BNPL» MChJ

STIR: 313034345

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Muxtumquli ko'chasi — 1

H/r: 20208000907466097001

Bank: «Kapitalbank» ATB Mirzo Ulug'bek filiali

MFO: 01158

Email: info@navonasiya.uz

I-ilova
«NAVO BNPL» MChJning bo'lib to'lash bilan to'lovlarni qabul qilishni
tashkil etish to'g'risidagi Ommaviy ofertasiga (Merchant uchun)
Tahrir sanasi: «___» _____ 20__-y.

QO'SHILISH TO'G'RISIDAGI ARIZA № _____

«NAVO BNPL» MChJning bo'lib to'lash bilan to'lovlarni qabul qilishni tashkil etish to'g'risidagi
shartnomani tuzish haqidagi Ommaviy ofertasiga (Merchant uchun)
(Didox elektron hujjat aylanish tizimida shakllantiriladi va imzolanadi; hujjat sanasi EHA tizimi
tomonidan belgilanadi)

1. Sotuvchi (Merchant) to'g'risidagi ma'lumotlar

Nomi / YaTT F.I.Sh.	
STIR	
Yuridik manzil	
Faktik manzil (savdo nuqtalari)	
Rahbar (F.I.Sh., lavozimi)	
Qaysi hujjat asosida harakat qiladi	
Telefon	
Email (Reyestrlar, Dalolatnomalar va bildirishnomalar uchun)	

2. To'lovlar uchun Sotuvchining bank rekvizitlari

Hisob raqami	
Bank	
MFO	

3. Platformaga ulanish to'g'risidagi ma'lumotlar

«MULTICARD PAYMENT» AJ bilan shartnoma (№ va sanasi)	
QR-kod turi	statik / dinamik (keraklisining tagiga chizilsin)
QR / savdo nuqtalarining identifikator(lar)i	

4. Individual shartlar

Servis Komissiyasining miqdori	har bir Operatsiya qiymatidan _____ %
Kategoriyalar bo'yicha tabaqalashtirilgan stavkalar (mavjud bo'lsa)	
To'lov muddati (Ofertaning 5.4-bandidan farq qilsa)	
Hisobot davri (bir kalendar oydan farq qilsa)	
Boshqa shartlar	

Ushbu bilan Sotuvchi quyidagilarni tasdiqlaydi: _____
manzilida joylashtirilgan «NAVO BNPL» MChJning bo'lib to'lash bilan to'lovlarni qabul qilishni tashkil etish to'g'risidagi shartnomani tuzish haqidagi Ommaviy ofertasi (Merchant uchun) bilan tanishgan, uning shartlarini to'liq tushunadi va unga hech qanday istisno va izohlarsiz to'liq hajmda qo'shiladi; ushbu Ariza ko'rsatilgan Ofertaning aksepti va uning ajralmas qismi hisoblanadi; ushbu Arizani imzolagan shaxs barcha zarur vakolatlarga ega; Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar ishonchli bo'lib, Sotuvchi ularning o'zgarishi haqida Servisni zudlik bilan xabardor qilish majburiyatini oladi.

1) Sotuvchi «NAVO BNPL» MChJdan jismoniy shaxs bo'lgan Xaridor uchun Operatsiyaning to'liq qiymati to'lovini qabul qilishga rozi bo'ladi.

2) Sotuvchi Servis Komissiyasini o'zining «NAVO BNPL» MChJ oldidagi pul majburiyati deb tan oladi hamda o'zi bilan «MULTICARD PAYMENT» AJ o'rtasida tuzilgan to'lov xizmatlarini ko'rsatish shartnomasiga muvofiq «MULTICARD PAYMENT» AJga har bir Operatsiya bo'yicha quyidagilarni so'zsiz topshiradi: «NAVO BNPL» MChJdan Operatsiyaning to'liq qiymatini qabul qilish, undan ushbu Arizada ko'rsatilgan miqdorda Servis Komissiyasini ushlab qolish (hisobga olish), Sotuvchiga Komissiya chegirib tashlangan summani o'tkazish, Komissiya summasini esa «NAVO BNPL» MChJ ixtiyorida qoldirish yoki unga o'tkazish.

3) Sotuvchi unga Komissiya chegirib tashlangan summaning o'tkazilishi Komissiyaning ushlab qolinishi (hisobga olinishi) bilan birgalikda «NAVO BNPL» MChJning Operatsiyaning to'liq qiymatini to'lash bo'yicha hamda «MULTICARD PAYMENT» AJning tegishli to'lov bo'yicha Sotuvchiga pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha majburiyatlarining lozim darajada va to'liq bajarilishi deb tan olinishini tasdiqlaydi.

4) Sotuvchi RAHMAT BNPL to'lov usuliga ulanish faqat ushbu Ariza Sotuvchi va «NAVO BNPL» MChJ tomonidan imzolangandan keyin amalga oshirilishini tasdiqlaydi.

Ushbu Ariza Sotuvchi tomonidan Servisga yuboriladi va Servis tomonidan Didox elektron hujjat aylanish tizimi orqali har bir Tomonning elektron raqamli imzosi (ERI) bilan imzolangan holda qabul qilinadi. EHA tizimi tomonidan qayd etilgan, ushbu Arizaning Servis tomonidan qabul qilingan (ERI bilan imzolangan) sanasi shartnoma tuzilgan sana deb tan olinadi. Tomonlarning ERI bilan imzolangan Ariza o'z qo'li bilan imzolangan va Tomonlarning muhrlari bilan tasdiqlangan qog'oz hujjatga teng kuchga ega.

SOTUVCHIDAN: _____ (nomi, imzolovchining F.I.Sh. va lavozimi) To'ldirilgan sana: «__» _____ 20__-y. Didox tizimida ERI bilan imzolanadi	SERVIS TOMONIDAN QABUL QILINDI: «NAVO BNPL» MChJ STIR: 313034345 Didox tizimida ERI bilan imzolanadi
--	--